# XORIJIY TILLARNI BILISH -DAVR TALABIDIR

**Nosirova Dilfuza Nabiyevna**
*Andijon viloyati Yuridik tehnikumi*
*yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi, 3 chi darajali yurist*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada til o'rganishning afzalliklari, uni mukammal o'zlashtirish, xorijiy tilni o'rganish asnosida o'sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishish, o'quvchilarga biron bir chet tilini o'rgatish uchun o'qituvchi-pedagogning o'zi yuqori salohiyat, bilim va malakaga ega bo'lishi, o'quv-mashg'ulotlarni qiziqarli tarzda olib borish, o'quvchilar o'rtasida interaktiv o'yinlar o'tkazib turish va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy til, xalq, mentalitet, o'quvchilar, o'qituvchi, pedagog, salohiyat, bilim, malaka, o'quv, mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar.*

Bugungi kun-globallashuv davridir. Bu davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq. Joriy yil 6 may kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi hamda 19 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida ham ayni shu dolzarb masalalarga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining qarori, xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi va vazirlar mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qarori qabul qilingan.

Har bir maktab bitiruvchisi ikkita xorijiy tilni mukammal bilishi lozimligi haqida gapirildi. Xalqaro talablarga javob beradigan darsliklar va metodikalarni joriy etish, shuningdek, OTMlarda ixtisoslik fanlarni xorijiy tillarda o'qitish zarurligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, davlat idoralariga ishga qabul qilish va yangi lavozimlarga tayinlashda xorijiy tilni bilishni majburiy talab sifatida joriy etish hamda xorijiy tilni chuqur biladigan xodimlarga qo'shimcha ustama to'lovi joriy etish maqsadlari borasida so'z yuritildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishi e'lon qilindi.

E'lon qilingan ko'plab chora-tadbirlar Prezidentning «Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topdi. Biroq, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishga urinishlar bir qancha vaqt oldin — Prezidentning 2012 yil 10 dekabrdagi «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi keng ko‘lamli qarori asosida ham amalga oshirilgan

Xorijiy tillarni o‘rganish bu shunchaki bir tilni bilish emas, balki bu hayotingizga bir qancha imtiyozlar eshigini ochib berishi mumkin

Xorijiy tillarni bog‘cha, maktab yoshidanoq o‘qitish, samarali metodlardan foydalanish, yoshlarni chet tillariga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarga biron bir chet tilini o‘rgatish uchun o‘qituvchi-pedagogning o‘zi yuqori salohiyat, bilim va malakaga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘quv-mashg‘ulotlarni qiziqarli tarzda olib borish, o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv o‘yinlar o‘tkazib turish maqsadga muvofiq.

Bizning tilda bo‘lgani kabi boshqa tillar ham o‘zida xalqning o‘tmishini aks ettiradi. Til o‘rganishning afzalliklarini uni mukammal o‘zlashtirmaguningizcha bilolmaysiz. Xorijiy tilni o‘rganish asnosida o‘sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishasiz. Bu til o‘rganishni boshlagan ilk kunlaringizdanoq sezilmaydi, ammo uni yaxshi va mukammal egallaganingiz sari hayot yanada yorqin va rang-barang ekanligiga amin bo‘lasiz. Zamonaviy psixologiya fani chet tilini o‘rganish inson xarakterini ham qisman o‘zgartiradi, degan fikrni ilgari surmoqda.

Keling, ko‘p gapirmasdan til o‘rganishning amaliy natijalarini sanab chiqamiz.

1. Internet qamrovi siz uchun yanada kengayadi. Ko‘pchilik bitta xorijiy tilni bilgani sababli kerakli ma'lumotlarni internetdan asosan shu tilda izlaydi. Ammo ingliz va yana bir nechta tilni bilganlar undan yuz chandon ortiq bilimga ega bo‘lishi turgan gap, boisi ular uchun ilk manbalar soni bir necha o‘n barobarga ko‘payadi-da.

2. Chet tilini bilish xorijiy filmlarni asliyatda ko‘rish imkonini beradi. Siz ham ayol, ham erkak kishi ijro etgan rollarga ovoz beruvchi aktyor emas, yoqtirgan kinoaktyorlaringizning haqiqiy ovozini tinglab, film tomosha qilish imkoniga ega bo‘lasiz. Bundan tashqari, dialoglardagi so‘z o‘yinlari va hazillarni o‘zlashtirib borishingizda ham yordam beradi.

3. Ajnabiy musiqani shunchaki emas, tushunib tinglashga ko‘nikasiz.

4. Globallashuv jarayoni. Shitob bilan o‘zgarib borayotgan davrda avvalgidek masofa katta rol o‘ynamaydi. Yildan-yilga sayohat qiluvchilar soni ortib bormoqda. Ularning safiga qo‘shilganingizda, ziyorat qilgan osori-atiqa to‘g‘risida mahalliy gid bilan tarjimonsiz suhbatlashishga nima yetsin?!

5. Chet tilini o‘rganayotganingizda, ilgari sezmaganingiz yoki parvo qilmaganingiz - atrofingizda muhojirlar ko‘pligini payqab qolasiz. Tanishuv mustahkam do‘stlikka aylansa, dunyoning narigi burchagida ham sizni tushunadigan odamning borligi adadsiz Yer sharini bahaybat va begona emas, yaqin qiladi.

6. Til o‘rganish fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Qabrgacha ilm izlang, deya murojaat qilinadi hadisda. Britaniyalik olimlarning aniqlashicha, ikkinchi tilni o‘rganish miyaning nutqiy ravonlikni ta'minlovchi qismini rivojlantiradi. Til o‘rganishga qancha erta kirishsangiz, ravon va chiroyli gapirishingiz ham shuncha yaxshilanadi.

7. Til bilish daromadni ko‘paytiradi. Angliya shimoli-g‘arbida istiqomat qiluvchilar ona tilidan tashqari bitta tilni bilishsa, yiliga 3000 funt sterlingdan ortiq maosh olarkan. "Sunday List" nashrida dunyoning eng boy odamlari ro‘yxatini chop ettirgan Filipp Beresfordning tadqiqotiga ko‘ra, xorijiy til bir yillik faoliyat davomida g‘arbliklarga o‘rtacha 145 000 funt daromad keltirmoqda va hokazo.

Xorijiy tilni o‘rganishdan hayiqib, «menga shu til kerak bo‘larmikan?» deb o‘ziga savol beruvchilar, shubhalaringiz bekorligiga ishonavering. Zamonaviy dunyoda xorijiy til suv bilan havodek zarur.

Til o‘rganuvchilarning aksariyati 17-30 yoshni qarshilagan kishilardir. Endi ishga kelgan tajribasiz yoshlarning ko‘pchiligi to tajriba orttirguncha chet tillaridan bir nechtasini bilishi evaziga «jon saqlashadi».

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi direktori S. OBIDOV Toshkent sh., 2021-yil 31-avgust, 1-mh-son.
2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/qiziqarli-malumotlar/xorijiy-tillarni-bilish-kerak-mi
3. https://telegra.ph/Xorijiy-tillarni-bilish--davr-talabi-08-24
4. https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/21/foreign-languages/
5. Nosirova D. OILAVIY MULOQOT MOHIYATI VA YOSHLARNING OILA QURISHGA ZAMONAVIY MUNOSABATI //Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2022. – T. 1. – №. 22. – C. 17-21.
6. Nosirova, Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT MOHIYATI VA YOSHLARNING OILA QURISHGA ZAMONAVIY MUNOSABATI." *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot* 1.22 (2022): 17-21.
7. Nosirova, D. (2022). OILAVIY MULOQOT MOHIYATI VA YOSHLARNING OILA QURISHGA ZAMONAVIY MUNOSABATI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, *1*(22), 17-21.
8. Nabiyevna N. D. The Essence of Family Communication and Historical Processes //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 41-46.
9. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "The Essence of Family Communication and Historical Processes." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 1.3 (2022): 41-46.
10. Nabiyevna, N. D. (2022). The Essence of Family Communication and Historical Processes. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, *1*(3), 41-46.
11. Nosirova D. N. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 272-276.
12. Nosirova, Dilfuza Nabiyevna. "ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.10 (2022): 272-276.
13. Nosirova, D. N. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10), 272-276.

14. Nabiyevna N. D. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI. – 2022.
15. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI." (2022).
16. Nabiyevna, N. D. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI.
17. Nosirova D. OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 19-23.
18. Nosirova, Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA." *O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali* 1.3 (2022): 19-23.
19. Nosirova, D. (2022). OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA. *O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 1*(3), 19-23.
20. Nabiyevna N. D. OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 265-269.
21. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.12 (2022): 265-269.
22. Nabiyevna, N. D. (2022). OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2*(12), 265-269.
23. Nabiyevna N. D. Quality Education is the Foundation of Our Future //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 229-233.
24. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "Quality Education is the Foundation of Our Future." *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal* 2.2 (2023): 229-233.
25. Nabiyevna, N. D. (2023). Quality Education is the Foundation of Our Future. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2*(2), 229-233.
26. Nabiyevna N. D. Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 34-39.
27. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 4.3 (2023): 34-39.
28. Nabiyevna, N. D. (2023). Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4*(3), 34-39.
29. Nabiyevna N. D., Sobirovna K. N. IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES //Conferencea. – 2022. – C. 46-48.
30. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza, and Komiljonova Nodirabonu Sobirovna. "IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES." *Conferencea* (2022): 46-48.

31. Nabiyevna, N. D., & Sobirovna, K. N. (2022). IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Conferencea*, 46-48.

32. Nosirova D. N. FAN, IQTISODIYOT VA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELLEKT //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5-2. – C. 923-927.

33. Nosirova, Dilfuza Nabiyevna. "FAN, IQTISODIYOT VA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELLEKT." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5-2 (2022): 923-927.

34. Nosirova, D. N. (2022). FAN, IQTISODIYOT VA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELLEKT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(5-2), 923-927.